

O‘TKIR VA SURUNKALI ARTERIAL GIPOTONIYA KLINIK KECHISHINING O‘SMIRLARDA ZAMONAVIY PATOMORFOZI

Mamasoliev N.S., Nurmatova T.S., Usmonov B.U.

Andijon davlat tibbiyot instituti, O‘zbekiston.

Ishning maqsadi- o‘tkir va surunkali arterial gipotoniyani (O‘sArG) o‘smirlik yoshida bo‘lgan axoli orasida klinik kechishining zamonaviy patomorfozi xususiyatlarini o‘rganishdan iborat –bo‘ldi.

Material va usullar. 1500 ta 15-22 yoshli axoli (o‘g‘il bolalar) orasidan representativ tekshiruv guruhi (1465ta) tashkillantirildi va ular chuqurlashtirilgan klinik- epidemiologik tekshiruvga jalb qilindi (so‘rovnomali, funksional, instrumental va klinik usullardan foydalanildi).

Natijalar. Shuni aloxida ko‘rsatish kerak bo‘ladiki O‘sArG 70,7% xollarda nospesifik simptomlar (bexollik, sababsiz ko‘z oldi qorong‘ilashuvi, esnash “ko‘z chaqnashlari” va x.k.) bilan ifodalanadi. Sinkopal ko‘rinish uning uchun ayniqsa xos bo‘lib, bunday kechish 7 xil variantda o‘tishi tasdiqlanadi: postprandial sinkop (5,9%), giperventilyatsion sinkop (1,5%), kardioaritmik sinkop (2,6%), gipovolemik sinkop (3,7%), sinokarotidli sinkop (1,8%), postural sinkop (2,2%) va vazodepressorli sinkop (4,8%). Ushbu alomatlar 15-17 va 18-22 yosh diapozonida bo‘lgan aholi guruhlarida tafovutlanib kuzatiladi: vazopressorli sinkop-3,3% va 6,0% darajalarda ($r<0,01$), postural sinkop -3,4% va 1,3% dan ($r<0,01$), sinokarotidli sinkop-1,6% va 2,2% dan ($r<0,05$), gipovolemik sinkop-2,4% va 4,6% dan ($r<0,05$), giperventilyatsiyali sinkop -1,6% va 1,3% dan ($r<0,05$) va postprandial sinkop 4,1% va 7,3% dan ($r<0,05$).

Xulosalar. O‘sArG balog‘at yoshiga kirish davridan boshlab monitoringga olinsa va uning klinik kechishi xususiyatlarini xisobga olib individual tarzda davolash- diagnostika xamda dispanserlik kuzatuvi faoliyatlari izchil amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bizning taxlillarimizga ko‘ra bunday mazmunli terapevtik amaliyotni amalga oshirish O‘sArG asoratlari bilan bog‘liq kelib chiqadigan kontinuumni 10% ga yetib kamaytiradi.